

---

## “Saylovlarga tayyorgarlik ko’rish va uni o’tkazishning tashkiliy-huquqiy masalalari”

Qo’shtepa tumanidagi 2-IDUMda “Saylovlarga tayyorgarlik ko’rish va uni o’tkazishning tashkiliy-huquqiy masalalari” mavzusida saylov uchastka faollari uchun maxsus o’quv-seminari tashkil etildi.

O’quv-seminarni o’tkazishdan maqsad uchastka saylov komissiyalari a’zolarida 2019 yil dekabr oyida Oliy Majlis qonunchilik palatasi, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga bo’lib o’tadigan saylovlarni tashkil etish, saylovga oid qonunchilik va saylov jarayonida vujudga keladigan turli masalalar yuzasidan vujudga keladigan bilim va ko’nikmalarni shakllantirishdan iborat.







O'quv-seminarda ishtirokchilar Saylovga oid qonunchilikdagi yangiliklar haqida aniq bilimlarga ega bo'lib, o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashmoqdalar.

O'quv-seminar davom etmoqda